




# ARXELOGIYA OLAMIGA SAYOHA

Ism

-ning

kitobi

Bo'lajak arxeolog



Bo'yash kitobi

Maks Plank evolyutsion  
antropologiya instituti



# ARXELOGIYA


# OLAMIGA SAYOHA T

Ism

-ning

kitobi

Bo'lajak arxeolog



Bo'yash kitobi

Maks Plank evolyutsion  
antropologiya instituti



**Nashriyot:** Maks Plank evolyutsion antropologiya instituti

**Mas'ul muharrir:** Kristina Varinner

**Mas'ul muharrir yordamchisi:** Jessika Hendy

**Loyiha ishtirokchilari:**

Zandra Fagernes

Jessika Hendy

Allison Mann

Ashild Vagene

Ke Vang

Kristina Varinner

O'zbek tiliga **Niyoz Rashidov** tomonidan tarjima qilindi.

Ushbu bo'yash kitobi ilmiy illyustratsiya bo'yicha o'quv kursining bir qismi sifatida tayyorlangan.



Attribution-NonCommercial-ShareAlike

CC BY-NC-SA

2024

DOI: 10.17617/2.3594163



## BIZ KIMMIZ?

Arxeolog olimlar bu – ilmiy uslublardan va eng zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda insoniyat o'tmishini o'rganuvchi tadqiqotchilardir.



## Arxeologik qazishmada

Olimlar dalada namunalarni qazib olish va to'plash uchun arxeologlar bilan yaqindan hamkorlik qilishadi va keyinchalik laboratoriya sharoitlarida tadqiqotlarini yana davom ettiradilar.

Bularga qabr ichidan namuna olish, eski sopol idish tubidan organik qoldiqlarni to'plash, qadimgi chiqindixonaga tashlangan hayvon suyaklarini qaysi hayvonga tegishli ekanligini aniqlash yoki o'simlik qodiqlarini topish uchun tuproqni elash kabilalar kiradi.

## Laboratoriyada

Olimlar qadimgi DNK (Dezoksiribonuklein kislota) bilan shug'ullanish jarayonida qadimgi namuna bilam zamonaviy DNK namunasini aralashtirib yubormaslik uchun toza xonalarda ishlashlari, maxsus kiyim, qo'lqop va oyoq kiyim kiyishlari kerak bo'ladi.

Olimlar qadimgi namunalarni o'rganish uchun bir qator asbob-uskunalardan foydalanishadi.






## ARXELOGIK QAZISHMA

Arxeolog olim insoniyat o'tmishini tadqiq qilish uchun dunyo bo'ylab sayohat qiladi. Ba'zan oddiy asboblardan tashqari maxsus uskunlar kerak bo'ladi. Masalan, Himolay tog'larida arxeologga toqqa ko'tarilish ruxsatnomasi va alpinistlar anjomlari kerak bo'ladi.

<b>Department of Home Affairs</b> <b>TREKKING PERMIT</b> <small>accordance with the rule 33 of 994 the permission is given in the area of Mustang District (excepting to 10 km)</small>		<b>NATIONAL TRUST FOR NATURE CONSERVATION</b> <b>NTNC ACACIA ENTRY FEE RECEIPT</b> <small>Ticket No.: 123456 Date: 21/06/22 Validity of Nepal: 30 days Point of Issue: Palace of Trekkers</small>									
<table border="1"> <tr> <td colspan="2"> <b>NATIONAL TRUST FOR NATURE CONSERVATION</b>  <b>Entry Permit</b>  <b>(ACA/MCA/GCA)</b>  <b>Schedule - 2 (Relating to Sub-Rule [1] of Rule 19)</b> </td> <td colspan="2"> <b>Date:</b>  <b>Entry Permit Issuing Authority</b>    <b>Signature</b>  <b>Full Name:</b>  <b>Designation:</b> </td> </tr> <tr> <td colspan="2"> <b>Receipt No.</b>: 0281630  <b>Entry Permit No.</b>  <b>Full Name:</b>  <b>Date of Birth:</b>  <b>Passport No.</b>  <b>Nationality:</b>  <b>Purpose of Visit:</b> </td> <td colspan="2"> <b>NTNC ACACIA ENTRY FEE RECEIPT</b>  <small>Received by _____ from _____ in _____</small>  <b>Payment Method:</b> _____  <b>Date:</b> _____  <b>Authority Name:</b> _____  <b>Authorized Signatory:</b> _____         </td> </tr> </table>				<b>NATIONAL TRUST FOR NATURE CONSERVATION</b> <b>Entry Permit</b> <b>(ACA/MCA/GCA)</b> <b>Schedule - 2 (Relating to Sub-Rule [1] of Rule 19)</b>		<b>Date:</b> <b>Entry Permit Issuing Authority</b>  <b>Signature</b> <b>Full Name:</b> <b>Designation:</b>		<b>Receipt No.</b> : 0281630 <b>Entry Permit No.</b> <b>Full Name:</b> <b>Date of Birth:</b> <b>Passport No.</b> <b>Nationality:</b> <b>Purpose of Visit:</b>		<b>NTNC ACACIA ENTRY FEE RECEIPT</b> <small>Received by _____ from _____ in _____</small> <b>Payment Method:</b> _____ <b>Date:</b> _____ <b>Authority Name:</b> _____ <b>Authorized Signatory:</b> _____	
<b>NATIONAL TRUST FOR NATURE CONSERVATION</b> <b>Entry Permit</b> <b>(ACA/MCA/GCA)</b> <b>Schedule - 2 (Relating to Sub-Rule [1] of Rule 19)</b>		<b>Date:</b> <b>Entry Permit Issuing Authority</b>  <b>Signature</b> <b>Full Name:</b> <b>Designation:</b>									
<b>Receipt No.</b> : 0281630 <b>Entry Permit No.</b> <b>Full Name:</b> <b>Date of Birth:</b> <b>Passport No.</b> <b>Nationality:</b> <b>Purpose of Visit:</b>		<b>NTNC ACACIA ENTRY FEE RECEIPT</b> <small>Received by _____ from _____ in _____</small> <b>Payment Method:</b> _____ <b>Date:</b> _____ <b>Authority Name:</b> _____ <b>Authorized Signatory:</b> _____									
<i>gration Officer</i> <i>on No</i>											

Samdzong, Nepal




## Tish toshi

Tish toshi, sizning tanangizda tirikligingizdayoq toshqotmaga aylanadigan yagona tarkibiy qismidir. Unda siz yegan ovqat qoldiqlari va bakteriyalar mavjud bo'ladi va tish toshlaridan inson qanday oziqlanganligi va sog'lig'i haqidagi ma'lumotni olishda foydalanish mumkin.

## Suyaklar va tishlar

Suyak va tishlarda DNK parchalari qolgan, undan qadimgi odamlarning hududlar bo'ylab ko'chishlarini tadqiq qilish, sochlari va ko'zlarining rangi, irsiy moslashuvchnaligini aniqlashda foydalansa bo'ladi. Agar biror kishi epidemiya vaqtida vafot etgan bo'lsa, shu kishini kasal qilgan qo'zg'atuvchi DNK si uning tishidan ham topilishi mumkin.



## Sopol idishlardagi qoldiqlar

Sopol idishlardagi organik va boshqa turdag'i qoldiqlarda o'simlik yoki hayvon oqsillari, o'simliklarning mikroskopik zarrachalari hamda ovqat qilishda ishlatalilgan yog' izlari bo'lishi mumkin. Ushbu qoldiqlarni tahlil qilish qadimgi odamlarning ovqatlanish odatlari va oshpazlik san'atini yoritishga yordam beradi.

## Hayvon suyaklari


Hayvon suyaklari bizga qadimgi odamlarning ovqatlanishi va iqtisodiy ahvoli haqida aytishi mumkin. Ular, shuningdek, radiouglered sanalash (qaysi davrga tegishli ekanligini aniqlash) va qadimgi iqlim qanday bo'lganligini bilishda ishlatalidi.

## BIZ NIIMANI O'RGANAMIZ?

Arxeolog olimlar insoniyat o'tmishini tadqiq qilish uchun ilmiy usullar va eng ilg'or texnologiyalardan foydalanishadi. Soz asbob-uskuna bilan juda kichik namunalardan, masalan, suyak, tish yoki idish parchasidan ko'plab ma'lumotni olsa bo'ladi.


## BILARMIDINGIZ?

Neandertallar 40 ming yil oldin yo'qolib ketgan, biroq ularning DNK si ko'plab afrikalik bo'limgagan odamlarning genlarida hali ham mavjud.



## TINSONNING KELIB CHIQLISHI

Qadimgi DNK evrilish (evolutsiya) jarayonidagi eng yaqin qarindoshimiz Neandertallarni tushunishga yordam bermoqda.



## Evrilish (evolutsiya)


Qadimgi odamlarning tishlari va suyaklarini o'rGANISH ORGALI AJDODLARIMIZ QANDAY YASHAGANLIGI VA BUGUNGI KO'RНИSHIMIZ QANDAY SHAKLLANIB KELGANLIGINI BILIB OLİSHIMIZ MUMKИН.



## QADIMGI KO'CHISHLAR (MIGRATSIYA)

Tarixgacha bo'lgan (yozuvning paydo bo'lishigacha) davr ko'chish jarayonlarini suyak va tishlardan olingen qadimgi DNA vositasida o'rganish mumkin. Izotop tahlillari, masalan, radiouglerod sanalash, stronsiy va kislород izotop analizlari birlashtirilsa, ko'chishlarni vaqt va joyi bo'yicha kuzatish mumkin.


Skiflar, Markaziy Osiyo  
Temir davri, eradan 700 yil oldin



## BILARMIDINGIZ?

Radiouglerod yoki  $^{14}\text{C}$ , bu uglerodning barqaror bo'limgan izotopi bo'lib, o'simliklar tomonidan fotosintez jarayonida havodan o'zlashtirib olinadi. Hayvonlar o'simliklarni yeganida radiouglerod ularning ham tanasiga tushadi va vaqt o'tishi bilan parchalanib boradi. Shunga binoan, qadimgi namunada  $^{14}\text{C}$  ning miqdorini hisoblasak, o'sha organizm qancha vaqt oldin yashaganligini taxmin qilish mumkin.

## Radiouglerod sanalash (davrlashtirish)




Namuna raqami:  
Ishching ismi:  
Namuna turi:  
Sana:

Radiouglerod sanalash hozirdan to 40 000 yilgacha bo'lgan davrdagi o'simlik va hayvonlarning yoshini aniqlashda ishlataladigan usuldir.

## **QADIMGI OVQATLANISH ODATI**

Olimlar qadimgi idish va inson tishlaridagi ovqat zarrachalar topish uchun mikroskoplardan foydalanishadi. Kichik zarrachalari tahlili Mezoamerikada 2000 yil oldin yashagan qadimgi maya xalqi ovqatlanishi haqida ma'lumot berishi mumkin.

Kopan, Gonduras  
Klassik maya davri,  
ermizning 300-yillari




## XONAKILASHTIRISH

10 000 yil davomida odamlar o'simlik va hayvonlarni ularning ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra yetishtirib keldilar. Qoramol ozuqa sifatida eng birinchi xonakilashtirilgan hayvon bo'lib, qadimgi odamlar ulardan go'shti, suti, terisi va qo'sh qo'shish uchun foydalanishgan.


## BILARMIDINGIZ?

Qoramol hozirda qirilib ketga yovvoyi buqadan xonakilashtirilgan. Eng qadimgi xonakilashtirilgan qoramol Onado'li yarimoroli, hozirgi Turkiya hududida aniqlangan.



## Sut mahsulotlari tarixi

Sut sog'ishning qachon boshlanganligi aniq emas, biroq arxeologlar mass-spektrometriya texnologiyasidan qadimgi tishlarda sut oqsillarini aniqlashda va eng birinchi sut mahsulotlari ishlab chiqarish tarixini tiklashda foydalanishadi.




## Mo'guliston


Maysalar bilan qoplangan Mo'g'uliston dashtlarida bir qancha turdag'i hayvonlar, shu jumladan, ot, qoramol, qo'tos, qo'y, echki, shimol bug'usi va tuyalar yashaydi. Ko'chmanchi qabilalar ularning barchasidan sut mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanadi.

Ot


Qo'y



Echki




Sigir




## SUT MAHSULOTLARI


Sut mahsulotlari Mo'g'uliston kundalik hayotida juda muhim o'r'in tutadi. Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, bu an'ana kamida 3 500 yildan beri davom etib kelyapti.




Stafilocokkk



Leykonostok




Laktokokklar



## Sut mikroflorasi

Mikroblar-asosan, bakteriya va achitqilar, bir nechta turdag'i sut mahsulotlari, masalan, yogurt, sariyog', pishloq, shuningdek, qurut va qimiz tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.




Laktobakteriyalar

ann hilaniat m...  
de cedonone decantare: qm totum  
aut amida

## QADIMGI KASALLIKLAR

Suyak, tishlar va tish toshlari qadimgi odamlarning sog'lig'i haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Masalan, tish toshida saqlanib qolgan DNK va oqsillar milk kasalligi va kariyes tarixini o'rganishda olimlarga yordam beradi.



color qm oculis dicitur  
bi capiat nec capor qm fan  
nec dimum e molle quod  
gat e rauen aliquid est y  
false est explicare non  
sup johem Ihesus vni  
in uitium affiat: omnis  
suggerit obmitest  
Vnde afferenda deo in  
tes in medio curatis in  
sedite opibz mentes mis  
premonie cito siant: si  
ann denitionis portan  
n gg  
u m  
viro  
rtius  
loise  
ans  
s  
eita  
u  
on  
'su  
om  
up  
om  
gl  
ne  
i s  
utie  
i di  
ans  
m  
ila


### Omne Bonum

Omne Bonum – XIV asrga oid lotin tilidagi qomusnomasi (ensiklopediya) bo'lib, Britaniya kutubxonasiida saqlanadi, kitob Yevropa o'rta asr hayoti haqida hikoya qiladi. Qomusnomada tishni davolash va tibbiy yordam ko'rsatish haqida ma'lumotlar bor, bu esa bizga o'rta asr kishilarining salomatlik holati va kasalliklarini yaxshiroq izohlashga yordam beradi.





quos priores plu...  
nre moni scripibz de flangendu

tantis. ... p... ilia  
a dulciora sup me



## SIL (TUBERKUL YOZ) VA MOXOV


Sil va moxov kasalligi bir biriga yaqin bakteriyalar tomonidan qo'zg'atiladi, bular: tuberkulyoz mikobakteriyasi (lot. *Mycobacterium tuberculosis*) va moxov mikobakteriyasi (lot. *Mycobacterium leprae*). Ikkala bakteriya ham suyaklarni zararlashi mumkin, skeletda qolgan bakteriya DNK qoldiqlari ushbu qadimiy kasalliklarning tarixini o'rganishda yordam beradi.



Moxov mikobakteriyasi

## KOKOLIZTLI EPIDEMIYASI


Asteklar tomonidan kokoliztlı (astekchasiqa "parazit", "kasallik") deb nomlangan noma'lum kasallik epidemiyasi 1545–1550-yillarda Meksika aholisining 60–90 % ining qirilib ketishiga sabab bo'ladi. Yaqinda kasallik qurbanlardan birining tishida qorin tifi kasalligi qo'zg'atuvchisi – Salmonellalar avlodiga kiruvchi bakteriya (lot. *Salmonella enterica*) DNK si aniqlandi.



*Salmonella enterica*

### Shifokor Shnabel

XVII asrda o'lat yuqtirgan bemorlarni davolovchi shifokorlar "yomon havo" dan himoyalanish uchun qush tumshug'ini eslatuvchi niqob taqib yurishgan.





### Kruz kodeksi

1550-yillarda yozilgan astek hujjatida kokoliztlı belgilari – isitma, toshma va kuchli qon ketish haqida aytildi.

## O'LAT

O'lat kasalligini kalamushlarda yashovchi zararlangan burgadan o'tadigan *Yersinia pestis* bakteriyasi qo'zg'atadi. O'lat Yevropaning yarim aholisining o'limiga sabab bo'lgan Qora o'lim pandemiyasini (1346–1353-yillarda) keltirib chiqargan edi.





### Prevotella

Popuk ildiz tizimi o'simlik mahsulotlarini hazm qilishda yordam beradi

### Treponema

O'simlik va ozuqaviy tolalarni parchalaydi


### Helicobacter pylori

Spiralsimon bakteriya bo'lib, oshqozonda yashaydi va oshqozon yarasi hamda ba'zi turdag'i saratonni keltirib chiqarishi mumkin.

### Bifidobakteriyalar

Emizikli chaqaloqqa sutni hazm qilishda yordam beradi


### Faecalibacterium



Ichak hujayralari uchun ozuqa ishlab chiqaradi

## AJDODLAR MIKROBIOMI


Sizning tanangizda trillionlab bakteriya hujayralari joylashadi va bu barchasi sizning mikrobiomingiz deyiladi. Ichaklarda yashovchi bakteriyalar sizga ovqatingizni hazm qilish va immun tizimingiz mustahkam bo'lishida yordam beradi. Teringizda yashovchi bakteriya sizni toza turishingizda yordam bersa, og'zingizda yashovchi bakteriya sizni kasallikkardan himoya qilishda ko'maklashadi.



### BILARMIDINGIZ?


Olimlar ajdodlar mikrobiomi tarkibini o'rganish va kasalliklar sababini yaxshiroq tushunish uchun tish toshlar va qadimgi inson organik chiqindilarini tadqiq qilishadi.

### Porphyromonas



### Faecalibacterium

Ichak hujayralari uchun ozuqa ishlab chiqaradi




## TERMACHILAR

Termachilar, ya'ni ovchi-termachilar nomi bilan tanilgan kishilar guruhi, asosan, yovvoyi o'simlik mahsulotlari va yovvoyi hayvonlarning go'shtlarini iste'mol qilishgan, ularning taomnomasi mavsumiy o'zgarib turgan.

Taxminan 10 000 yilcha oldin, dehqonchilik boshlanishidan avval yer yuzidagi barcha odamlar ovchilik va termachilik bilan kun kechirishgan.

Zamonaviy ovchi-termachilar hozirda sanoatlashgan jamiyatlarning aholisiga qaraganda murakkabroq mikrobiomga ega.




## SANOATLASHGAN JAMIYAT


Sanoatlashgan jamiyatlarda, asosan, dehqonchilik mahsulotlari iste'mol qilinadi, qishloq xo'jaligida juda oz sonli insonlargina band bo'ladi.

Mexanizatsiya, himoyalash va saqlash sanoatlashgan oziq-ovqat zanjirining asosiy jihatni bo'lib, oziq-ovqat iste'mol qilinguniga qadar uzoq yo'lni bosib o'tadi.


Bugun sanoatlashga jamiyat odamlarida ichak mikrobiomlari xilma xilligi biroz kamaygan, bu esa ularda ba'zi surunkali yallig'lanishlar xavfini ortishiga olib kelishi mumkin.

























Maks Plank Insoniyat  
tarixi fanlari instituti



## ARXELOGIYA OLAMIGA sayohat Bo'yash kitobi

Qarang, arxeologlar va boshqa olimlar insoniyat o'tmishi haqidagi muammolarni yechishda birgalikda qanday ishlamoqda! Biz kimligimizni va insoniyat paydo bo'lgandan to o'rta asr o'lat tarqalishigacha nimani tadqiq qilishimizni tushunish uchun bizga qo'shiling! Qadimgi ko'chishlar va radiouglerod sanalash haqida bilib oling! Olimlar qanday qilib juda kichik o'simlik qoldig'i zarrachalaridan qadimgi ovqatlanish odatlarini o'rganyotganini ko'rasiz. Xonakilashtirish haqida qiziqarli ma'lumotlar va sut mahsulotlari ortidagi ilmnii topasiz! Qadimgi kasalliliklar va epidemiyalarni tadqiq etib, ajdodlar mikrobiomini kashf etasiz.

Maks Plank Insoniyat tarixi fanlari instituti olimlari  
tomonidan tayyorlandi.

O'zbek tiliga Niyoz Rashidov tomonidan tarjima  
qilindi.

